

MATN LINGVISTIKASI VA DISKURS NAZARIYASIDA PARSELLYATSIYA

O'ralova Nargiza Isroilovna,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti,
imomaliyevanargis@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada kognitiv tilshunoslikda diqqatni jamlash vositasi sifatida parsellyatsiyaning o'rni, matn lingvistikasi, diskurs tahlil qilinadi. Unda parsellyatsiyaning badiiy va publitsistik diskurslarda ifodalilikni oshirishi hamda o'quvchi idrokini boshqarishdagi ahamiyati ko'rsatiladi. Tadqiqot parsellyatsiyaning matn lingvistikasidagi o'rni va ta'siri yoritib, ularning nutqiy ta'sir kuchini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi. Natijalar parsellyatsiyaning yashirin ma'lumotlarni fokusga olib chiqishi, obrazlilik va hissiy ta'sirni chuqurlashtirishini ko'rsatadi. Shu tariqa, ular zamonaviy diskurs tahlilining muhim vositalari sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: parsellyatsiya, diskurs, kognitiv tilshunoslik, psixologiya, punktuatsiya, matn, muloqot.

Abstract. The article analyzes the role of parcellation as a means of focusing attention in cognitive linguistics, text linguistics, and discourse. It shows the importance of parcellation in increasing expressiveness in artistic and journalistic discourses and in controlling the reader's perception. The study sheds light on the role and impact of parcellation in text linguistics, emphasizing that they significantly increase the power of speech impact. The results show that parcellation brings hidden information into focus, deepens imagery and emotional impact. Thus, they are considered important tools of modern discourse analysis.

Keywords: parcellation, discourse, cognitive linguistics, psychology, punctuation, text, communication.

Аннотация. В статье анализируется роль сегментации как средства фокусировки внимания в когнитивной лингвистике, текстовой лингвистике и дискурсе. Показана важность сегментации в повышении выразительности художественных и журналистских дискурсов, а также в управлении восприятием читателя. Исследование освещает роль и влияние сегментации в текстовой лингвистике, подчеркивая, что она значительно усиливает силу воздействия речи. Результаты показывают, что сегментация фокусирует скрытую информацию, углубляет образность и эмоциональное воздействие. Таким образом, она считается важным инструментом современного анализа дискурса.

Ключевые слова: сегментация, дискурс, когнитивная лингвистика, психология, пунктуация, текст, коммуникация.

Kirish. Parsellyatsiya matn lingvistikasi va diskurs nazariyasida til birliklarining struktur, ma'no va kommunikativ tartibini belgilovchi muhim sintaktik hodisa sifatida talqin qilinadi. Matn lingvistikasining asosiy kategoriyalari – matnning ichki bog'liqligi, mazmunning izchil rivoji va axborotning taqsimlanish tartibi – nuqtayi nazaridan parsellyatsiya matnning mazmun dinamikasini boshqaruvchi vosita bo'lib, matn qismlarini markazlashtirish, e'tibor nuqtasini o'zgartirish va ma'nodagi muhimlik darajasini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. Diskurs nazariyasi doirasida esa parsellyatsiya nutqning maqsadga yo'naltirilgan strategiyalaridan biri sifatida ko'riladi va so'zlovchining kommunikativ niyatini aniq ifodalash, emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytirish va nutq jarayonida tinglovchi e'tiborini boshqarish imkonini beradi. Shu sababdan parsellyatsiya nafaqat sintaktik bo'linish mexanizmi, balki matnning izchil mazmuniy tuzilishini va

diskursning pragmatik yoʻnalishini shakllantiruvchi funksional kategoriya sifatida ham oʻrganiladi.

Adabiyotlar sharhi. Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda har doim yangidan matn yaratmaymiz. Ehtiyojimizga koʻra turli matn tiplaridan foydalanamiz. Baʼzan boshimizdan oʻtgan yoki oʻzimiz guvoh boʻlgan voqealarni kimgadir aytib beramiz. Tinglovchiga notanish boʻlgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab berishga harakat qilamiz. Baʼzan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga, izohlashga ehtiyoj sezamiz. Yoxud kimgadir pand-nasihati qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqot maqsadimiz baʼzan qandaydir informatsiyani tinglovchiga yetkazishga qaratilgan boʻladi. Shu bilan birga biror ishni qanday bajarish kerakligi haqida tavsiyalar beramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq beramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli koʻrsatma, taʼqiq va xitob jumllaridan foydalanamiz. Insonlar oʻrtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuygʻularini, hayajonlarini, azob va ygʻularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni taʼsirlantirishni istaydi. Ana shunday hollarda baʼzan mubolagʻa baʼzan oʻxshatish – qiyoslash kabi tasviriy vositalardan foydalanamiz. Maʼlumki, matn - axborot almashish birligi va u asosan shu vazifani bajarish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, uning mazmuni ham muloqot va axborot almashinuv kabi vazifalarning uygʻunligini taqozo etadi. Odatda, matn kommunikativ-axborot tuzilishining ikki bosqichli hodisasi sifatida qaraladi. Bulardan birinchisi, matnning tema-rema qurilishi boʻlsa, ikkinchisi uning mazmuniy (mavzuviy) markazi yoki asosidir. Matn mazmunining dinamik (harakatdagi) va statik (turgʻun holatdagi) qobiqlarini tashkil qiladi deb hisoblanib kelinayotgan bu ikki xususiyatni alohida, ayri holda oʻrganish odat tusiga kirib qolgan. Shundan kelib chiqib matnni, xususan, badiiy matnni quyidagi tiplarga boʻlib chiqish mumkin: 1.Hikoya mazmunli matn 2.Tasviriy matn 3.Izoh mazmunli matn 4.Didaktik matn 5.Xabar mazmunli matn 6.Buyruq mazmunli matn 7.Hissiy ifoda mazmunli matn.

Tadqiqot metodologiyasi. Parsellyatsiya kommunikativ, ekspressiv sintaksisda, xususan, badiiy matnda benihoya muhim ahamiyatga ega boʻlgan sintaktik-kommunikativ hodisa boʻlib, uning mohiyati yaxlit butunlik boʻlgan gapni mantiqiy taʼkid va ekspressiyani kuchaytirish maqsadida ikki (yoki undan ortiq) kommunikativ birlikka ajratib gapdan tashqariga chiqarishdan iborat. Bu hodisa sodda, qoʻshma gaplarda, murakkab sintaktik butunliklarda namoyon boʻladi. Bunday yondashuvda matnni turli xil birliklar, nafaqat matn yaratish materiali sifatida ishlatiladigan ogʻzaki birliklar, balki matn yaratuvchi xarakterdagi birliklar bilan toʻldirilgan makon sifatida koʻrib chiqish mumkin.

Tahlillar va natijalar. Badiiy matnda gap boʻlaklari shaklidagi parsellyatlar turli tarzlarda namoyon boʻladi. Bundan kesim shaklidagi parsellyatlarni qisman mustasno boʻladi. Kesim shaklidagi parsellyat juda kam uchraydi, chunki kesimning gapdagi mantiqiy-grammatik mavqeyi uning parsellyatsiyalanishiga toʻsquinlik qiladi. Ega gap

bo'lagining gapdan parsellyat sifatida chiqarilganligini juda ko'p uchratish mumkin. Eganing parsellyat sifatida asosiy gapdan tashqariga chiqarilishida juda qiziq, xilma-xil semantik-grammatik holatlar kuzatiladi, xususan, asosiy gapdagi uyushiq egalarning biri yoki bir nechtasi parsellyat sifatida chiqarilishi, ba'zan umumlashtiruvchi so'z asosiy gapda qoldirilib, uyushiq bo'laklar gap tashqarisiga chiqarilishi yoki uyushiq bo'laklar guruh tarzida va alohida-alohida parsellyatsiyalanishini kuztish mumkin.

To'ldiruvchining parsellyat sifatida asosiy gap tashqarisiga chiqarilishi ham juda ko'p uchraydigan sintaktik hodisalardandir. Aniqllovchi ham parsellyatsiyalana oladi. Badiiy matndan to'plangan faktlar sifatlovchi-anicllovchi, qaratqich-anicllovchi va izohlovchi-anicllovchi shaklidagi parsellyatlar uchrashini ko'rsatadi.

Badiiy matn doirasida hol shaklidagi parsellyat juda ko'p uchraydi. Bunga sabab shuki, hol hamisha gapning umumiy mazmuni bilan aloqalanadi, shunga ko'ra unda osongina parsellyatsiyalanish xususiyati mavjud.

Parsellyatsiyaning punktuatsion va intonatsion vositalarga tayanib fikrni bo'laklarga ajratishi matn lingvistikasida tinish belgilarining funksional ahamiyatini kuchaytiradi. Chunki tinish belgilari matnning sintaktik tuzilishini tartibga solishdan tashqari, mazmunning mantiqiy izchilligini, fikrning ta'kidlangan nuqtalarini va kommunikativ maqsadning aniq ifodalanishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, parsellyatsiya jarayonida tinish belgilarining qo'llanishi matndagi mazmuniy bo'laklarning ajralishi, adresat diqqatining kerakli nuqtaga yo'naltirish va intonatsion dinamika yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, parsellyatsiyaning matndagi grafik rasmiylashuvi punktuatsiya tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, sintaktik jihatdan yagona butunlikni tashkil etadigan gap yoki gap bo'lagining alohida kommunikativ birlik sifatida ajratilishi, avvalo, tinish belgilari orqali ifodalanadi. Bunday bo'linish jarayonida punktuatsiya matnning intonatsion-pauzal strukturasi belgilaydi, mazmuniy urg'uarni kuchaytiradi hamda matn ichidagi informatsion markazni muayyan segmentga ko'chiradi. Shuning uchun parsellyatsiya punktuatsiyaning funksional imkoniyatlaridan foydalanib, matnning ritmik oqimini boshqaruvchi, emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytiruvchi va adresat e'tiborini kerakli nuqtaga yo'naltiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman, badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalar muallif nutqida ham qahramonlar nutqida ham keng qo'llaniladi. Ekspressiv sintaksis usuli bo'lgan parsellyatsiya natijasida so'z isrofgarchiligi kamayadi, tegishli qismlarning poetik ta'kid darajasi ortib, nutqning lingvopoetik, sintaktik-estetik quyushuvi vujudga keladi. Parsellyatsiya badiiy matnda matn badiiyatini oshirib, o'ziga xos sintaktik usul vazifasini bajaradi.

Xususan, yozma nutqning "avtonomiyasi" tarafdori bo'lgan N.Katash punktuatsion belgiga ifodalovchi va ifodalanuvchiga ega bo'lgan ikki tomonlama belgi sifatida qaraydi va uni punktuma (ponctème) deb ataydi Tadqiqotchi shunday fikr yuritadi: "Grafema

senema ("bo'sh" belgi, ifodalovchini anglatuvchi) yoki plerema ("to'liq" belgi, Yelmslev terminologiyasida, ya'ni ifodalovchi va ifodalanuvchiga ega) bo'lishi mumkin.

S.Petiyon-Bushron esa qavslar va boshqa belgilar haqida ham shunday deyish mumkin, deb hisoblaydi. S.Petillon-Bushronning punktuatsion belgini tushunishga bo'lgan ushbu yondashuv samarali ekanligi haqidagi fikriga qo'shilamiz, chunki u bu belgining ikki tomonlama mohiyatini asoslaydi va punktuatsiyani til tizimining bir qismi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Psixologlar va psixolingvistlarning tadqiqotlariga asoslanib, tadqiqotchi punktuatsiyani "matn maydonini tashkil etuvchi so'zsiz optik bo'linish jarayoni" deb ta'riflaydi.

I.Fonaji ham punktemani boshqa til belgilari bilan bir qatorga qo'yadi va ba'zi belgilarning sinonimiya, omonimiya va polisemiya munosabatlarini o'rganadi. Masalan, undov belgisi, ikki nuqta, kursiv va bosh harflar ta'kidni hosil qilish uchun xizmat qilishi mumkin; qo'shtirnoq va kursiv - metalingvistik qo'llanish belgilari va hokazo. Punktuatsiya belgisi mutlaq sinonimlarga ega emas va uning ma'nosi boshqa belgilarga qarama-qarshilikda namoyon bo'ladi. Muallif tomonidan qo'llanilgan metodika barcha xususiy funksiyalarni (fonctions particulières) birlashtiruvchi belgining asosiy funksiyasini (fonction de base) aniqlash imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, muhim metodologik g'oyalardan biri nafaqat tinish belgilarining vazifasini, balki ma'lum bir punktuma bilan "ta'sirlangan" fikrning turli elementlari o'rtasidagi semantik mun Rus tilshunosligida punktuatsiyani keng tushunish eng keng tarqalgan bo'lib, A.A.Reformatskiy tomonidan uni optikografik ma'lumot belgilarining avtonom tizimi sifatida ta'riflagan. Tilshunos bu tizimning asosiy maqsadini grafik matnni tashkil etishda ko'rdi.

Olimlarning bunday nuqtayi nazari shuni ko'rsatadiki, punktuatsion tizim mustaqil semiotik tizim sifatida qaraladi, bu esa ma'lum e'tirozlarga sabab bo'lishi mumkin, chunki bu tizim til tizimidan ajralgan holda faoliyat ko'rsata olmaydi. Bu borada N.L.Shubinaning ta'rifi diqqatga sazovor: punktuatsiya - bu yozma nutqda kommunikativ vazifalarni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan yordamchi semiotik (belgili) tizimdir.

Biz e'tibor qaratmoqchi bo'lgan ikkinchi jihat quyidagicha: noverbal punktuatsion belgi verbal belgi bilan bir qatorda til belgisi tushunchasiga uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan holda kiritiladi. Punktuatsiyaning belgililigi haqidagi qarashlarning yuqorida keltirilgan sharhi tilshunoslikda bu masala hali o'z yechimini topishi kerakligini ko'rsatadi.

Yuqorida sanab o'tilgan ishlarning afzalliklarini aslo kamsitmagan holda, quyidagi mulohazalarga ko'ra, ulardagi yondashuvga qo'shilmaslikka jur'at etamiz. Birinchidan, tinish belgilarini mustaqil til belgilari sifatida e'tirof etish tilshunoslikda allaqachon shakllangan til belgisi tushunchasiga zid keladi: "Til belgisi - voqelikning predmeti, xususiyati, munosabatini ifodalovchi moddiy-ideal tuzilma (tilning ikki tomonlama birligi), o'z majmuida til belgilari tilni tashkil etadi".

Tinish belgilarining bu xususiyatiga Ch. Morris ham e'tibor qaratgan bo'lib, u tinish belgilarini pauzalar, urg'ular, kursivlar, harflar kattaligi va boshqalar bilan bir qatorda denotatga ega bo'lmagan va tilda asosan pragmatik vazifani bajaradigan belgilar guruhiga kiritgan.

Yuqoridagilarga asoslanib, biz punktuatsiya deganda murakkab verbal belgilarni yaratishda ishtirok etadigan grafik noverbal belgilarning mustaqil emas, balki yordamchi semiotik funksional-moslashuvchan tizimini tushunishni taklif etamiz. Punktuatsion belgilar bunday yondashuvda noverbal sinografik til belgilari sifatida namoyon bo'ladi. Matnda bu turdagi belgilar verbal belgilar bilan integratsiyalashadi, matnning fazoviy (grafik) va mazmuniy (mazmuniy) tashkil etilishida faol ishtirok etadi. Muayyan ma'lumotni uzatish orqali noverbal til belgilari o'zining ma'no kodini va qo'shimcha aloqa kanalini hosil qiladi. Matnda o'zaro to'ldiruvchilik munosabatida bo'lgan verbal va noverbal belgilar ma'lumotni ixcham, ammo idrok etish va tushunish uchun qulay shaklda taqdim etish imkonini beradi. Punktuatsiya tizimida muallif belgilari alohida o'rin tutadi, ularning "joylashuvi butunlay muallifning irodasiga bog'liq", "ularning zarurligini individual his qilishni o'zida mujassam etadi". Tadqiqotchilar bir ovozdan e'tirof etganidek, parsellyatsiyadagi nuqta belgisi (uni parsellografema deb ataymiz) aynan shu turdagi belgilar qatoriga kiradi. Ushbu vositadan foydalanish tartibga solinmagan, gazeta-publitsistik va badiiy matnlarda osonlikcha qo'llanilishi mumkin. Uning semantik-stilistik ma'nosi matnda tug'iladi va faollashtirish vazifasi bilan chambarchas bog'liq.

Parsellyatsiya nutqning paydo bo'lishi, idrok etilishi va talqin qilinishiga doir ko'plab masalalarda hanuzgacha yetarlicha o'rganilmagan hodisalardan biridir. Ayniqsa, matn orqali uzatiladigan informatsiyani taqsimlashda qo'llaniladigan singrafiyalarning funksional o'rni, parsellyatsiyaning turli diskurs turlarida namoyon bo'lish xususiyatlari va uning multimodal kommunikatsiyadagi roli bo'yicha izchil nazariy yondashuv shakllanmagan. Tadqiqotlarda olimlarning e'tibori ko'proq parsellyatsiyaning og'zaki-sintaktik tarkibiga qaratilgan bo'lib, uning mazmuni konstruksiyaning ichki semantik strukturasi ham, grafik tashqi ifodasida ham mujassam bo'lgan murakkab ma'no qatlamlarini o'zida birlashtiradi. Shu sababli, parsellyatsiyani grafik-puntuatsion komponentni hisobga olmasdan obyektiv talqin qilish imkonsiz; chunki u vizual-grafik "taqdimot" vositalaridan biri sifatida adresant va adresantning maxsus bilim va ko'nikmalarini talab qiladi.

Parsellyatsiya nazariyasini yangilash va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, parsellyatsiyaning tabiati, shakllanish mexanizmi, idrok qilinishi va talqini bilan bog'liq qator muhim masalalar oldingi tadqiqotlarda deyarli yoritilmagan. Bu, avvalo, ushbu hodisani o'rganish uchun samarali metodologik yondashuvlarning ishlab chiqilmaganligi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, parsellyatsiya bo'yicha mavjud ishlarda paradoksal holat kuzatiladi: konstruksiyaning funksional imkoniyatlari, semantik o'zgaruvchanligi va singrafiyalar to'plami haqidagi

masalalar asosan gap darajasida hal qilinmoqda. Holbuki parsellyatsiya – “o‘zining ochiq va yashirin ma’nolarini amalga oshiradigan, ammo ko‘pincha ilmiy tadqiqotlardan tashqarida qoladigan” matn/diskursdan olinadigan birlikdir.

Zamonaviy mediadiskurs sharoitida nutqning kodlash jarayonlari faqat ma’lumot yetkazish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchi yoki tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish, fikrni yo‘naltirish va informatsiyani maqsadli tarzda taqsimlashga ham xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalarida aks ettiriladigan voqelikning multimodal tabiati shuni ko‘rsatadiki, verbal va noverbal resurslarning uzviy o‘zaro ta’siri kommunikativ strategiyaning asosiy mexanizmiga aylanadi. Bunday muhitda matnning tashqi rasmiylashuvi – jumladan, parsellyatsiya, punktuatsiya, grafika – kognitiv jarayonlar bilan birgalikda ishlaydi va adresant, obyekt hamda retsiptentning dinamik o‘zaro ta’sirida faollashadi. Ammo uning matn va diskursda qanday maqsadlarni bajarishi va qanday ma’nolarni yuzaga chiqarishi hali to‘liq o‘rganilmagan. Parsellyatsiyaning tabiati, idroki va interpretatsiyasi; yakuniy singrafiyalarning roli; parsellyatsiyaga doir kategoriyalarni aniqlash va korpus asosida tadqiq qilish imkoniyatlari hozircha yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu holat samarali tadqiqot metodlarining shakllanmaganligi, ulkan empirik materialni qayta ishlash imkonini beruvchi korpus usullarini qo‘llashdagi murakkabliklar bilan ham bog‘liq.

Mazkur tadqiqot doirasida parsellyatsiyani tavsiflash uchun “parsellema” atamasi taklif etiladi. Parsellema – voqelikning muayyan fragmentini aks ettiruvchi semantik birlik bo‘lib, u ikki darajada namoyon bo‘ladi: mavhum darajadagi ideallashtirilgan konstruktsiya sifatida; diskursdagi moddiy-grafik mujassamlashuv sifatida. Parsellemaning grafik qatlami parsellografema orqali amalga oshadi – ya’ni parsellyatsiyani hosil qiluvchi yakuniy singrafema. Parsellografema belgi sifatida barqaror semantik yadroni saqlaydi, ammo diskursga kirgan zahoti uning ma’nosi aktual pragmatik talqinlar bilan to‘ldiriladi.

Xulosa. Parsellyatsiya diskurs nazariyasi doirasida nafaqat matnning sintaktik segmentatsiyasi, balki kommunikativ strategiya va kognitiv-prosessor mexanizmi sifatida tushuniladi. Diskurs jarayonida produtsent tomonidan amalga oshiriladigan parsellyatsiya, matn bo‘laklari orasida kognitiv pauza hosil qilib, adresantning e’tiborini kerakli elementga yo‘naltirish, mazmun segmentlarini ajratish va ularni interpretativ talqin qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, punktuatsion belgilar – nuqta, tire, ko‘p nuqta, undov va so‘roq belgisi – faqat sintaktik vazifani bajarish bilan cheklanmay, emotsional, pragmatik va talqin funksiyalarini ham kodlaydi. Masalan, nuqta diskursda keskin ajratish va ma’lumotni “yangi segment” sifatida tanitadi; tire esa dramatik yoki semantik uzilish, shuningdek, fokusni o‘zgartirish imkonini beradi; ko‘p nuqta emotsional pauza va noaniqlikni bildiradi; undov belgisi emotsional yukni vizual tarzda ifodalaydi, so‘roq belgisi esa adresantning kognitiv reaksiyasini chaqiradi. Shu tariqa, parsellyatsiya diskursni tashkil etuvchi multimodal vosita sifatida, matnning verbal va noverbal qatlamlari o‘rtasida uzviy bog‘lanishni ta’minlaydi va adresantning ma’no hosil qilish jarayonida faol rol o‘ynaydi. Shuningdek, kognitiv-diskursiv yondashuvda parsellyatsiya

mental makonlar va saliyentlik kontseptsiyalari bilan uzviy bog‘lanadi. Parsellangan segmentlar diqqat markaziga ko‘tarilib, fon ma‘lumotdan ajraladi va diskursning semantik ierarxiyasida o‘z o‘rnini oladi. Bu jarayon, Fauconnier, Talmy va Irisxanova ta‘kidlaganidek, matnni nafaqat o‘qish, balki talqin qilish va kognitiv konstruksiyalash imkoniyatini ham yaratadi. Shu nuqtai nazardan, parsellyatsiya diskursni tashkil etuvchi grafik-semiotika va kognitiv strukturani birlashtiruvchi muhim vosita sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ванников Ю.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. М.,1979. С. 5
2. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. М., 1981. С. 204.
Иванчикова Е.И. Парцелляция, ее коммуникативно-экспрессивные и синтаксические функции // Морфология и синтаксис современного русского литературного языка, М., 1968. С. 279
3. Иванчикова Е.И. Парцелляция, ее коммуникативно-экспрессивные и синтаксические функции // Морфология и синтаксис современного русского литературного языка, М., 1968. С. 279.
4. Акимова Г. Н. Новое в синтаксисе современного русского языка: Учеб. пособие. М., 1998, с. 87-100.
5. Сковородников А.П. Экспрессивные синтаксические конструкции современного русского литературного языка. Томск, 1981. С. 141.
6. Зелепукин Р. О. Парцелляция в художественной прозе В. Токаревой. Структура, семантика, текстообразующие функции. Автореф. дис. канд. филолог. наук. М., 2007, с. 5-7.
7. Бабайцева В.В. Синкретизм парцеллированных и присоединительных субстантивных фрагментов текста // НДВШ. Филологические науки. 1997. № 4. С. 57.
8. Is‘hoqov F. Hozirgi zamon o‘zbek tilida ilovali konstruksiyalar // Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 2-kitob. – Toshkent: O‘zRFA, 1961.
9. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. Монография.- Самарқанд: СамДу, 2010-б.186
10. Haydarov Sh. Badiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo‘llanishi. Dissertasiya. –Т.: 2010 .